



UZBEK PEOPLE'S INSTRUMENT - AFGHAN RUBOBI

Abdurakhmanova Manzura Batirovna

Lecturer at the Department of Music Education, Uzbek State University.

19manzura62@bkl.ru

Annotation

The origin of the Afghan rubab, its rich timbre and melancholy sound, pleasant melody, the role of the instrument in our musical culture, especially in the performance of the instrument. Special recognition, theory and history of its dependence on musicians, as well as the fact that it has won many national and international competitions.

Keywords: Afghan rubobi, Sado, Tor, Lya, okhang, melody.

Introduction

O'zbek milliy cholg'ulari juda qadimiy cholg'ulardan ekanligi ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan yozma manbalarda, shuningdek, arxeologik topilmalardagi turli hil chizmalar va suratlar orqali bizga ma'lum. Huddi shu qadimiy cholg'ulardan biri afg'on rubobidir. Afg'on rubobi mizrob bilan chalinadigan cholg'u bo'lib u o'ziga xosligi, juda boy tembri bilan ajralib turadi hamda o'zbek xalq cholg'ulari orasida faxrli o'rinni egallaydi. Afg'on rubobining kelib chiqishini aniqlash qiyin, chunki u turli manbalarda turlicha eslatib o'tiladi. Qadimda bu cholg'u Markaziy Osiyo, Hindiston va Afg'oniston xalqlari orasida ommalashgan cholg'ulardan biri hisoblangan. Bu cholg'u o'sha davrlar musiqa madaniyatida yetarlicha mashhur cholg'ulardan bo'lgan bo'lsada, asosan milliy kuy va qo'shiqlarni ijro etish imkoniyatiga ega bo'lgan. Afg'on rubobida yangraydigan taronalarni xalqimiz sevib tinglaydi. Sozdan chiqayotgan ohanglarga musiqiy shinavandalar mehr bilan quloq tutadilar. Uning to'la va mungli sadosi, yoqimli navosi, qolaversa, ba'zi rivoyatlarga qaraganda, bemor kishilarni davolash qudratiga ega bo'lganligi uchun ham undan ohang taratish san'ati xalqimiz tomonidan avaylab e'zozlanadi. Ma'lumki XX asrning 30-40 yillarida Respublikamizda o'zbek xalq cholg'ularini takomillashtirish ishlari boshlab yuborilgan. Hususan, afg'on rubobi cholg'usi ham takomillashtirilib, uning dastasi, qorin qismi, unga qoplanadigan terisi, torlari va pardalari o'zgartirilgan. Natijada cholg'uning dastasiga xromatik tovush qatorlar o'rnatilib, cholg'uning ijro diapazoni kichik oktava "lya" dan uchinchi oktava "mi" gacha yetkazildi. Afg'on rubobi cholg'usini takomillashtirishda, ya'ni yangi ko'rinishdagi hozirgi cholg'uni yaratishda sozgar ustalarning xizmatlari katta bo'ldi. Bugungi kunda ham soz ustalari ushbu cholg'uni yanada takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib bormoqdalar. Ular sozgarlik an'analari va ustoz sozgarlar ishini muvaffaqiyatli davom ettirib kelmoqdalar. Barcha sozlar qatori afg'on rubobining umrboqiyiligi ham shubhasiz sozgar ustalar faoliyatiga, ularning mahorati va ijodiy izlanishlariga bog'liqligi sir emas albatta. Demak, cholg'uning musiqa madaniyatimizga, xususan cholg'u ijrochiligida tutadigan o'rni, mavqei sozandalarga ham bog'liq. Bu borada afg'on rububchi mashhur sozandalarning yetishib chiqayotganligini, ular orasida faxriy



unvonlar, davlat mukofotlari, shuningdek ko'plab respublika va xalqaro tanlovlari g'oliblari yetishib chiqayotganligini alohida e'tirof etish joiz.

Masalan: Ustozlardan Usto Muhammad Umar (1906-1981), Tovur Jumayev (1918-1983), Ergash Shukurullayev (1922-1995), Umarjon Xamidov (1919-1985), Dotsent G'ulomqodir Ergashev, (1946-2007) Dotsent Ilhom Azimov, professor Azatgul Tashmatova va xalq ta'limi a'lochisi Anvarjon Hojinzarov, Nixol mukofoti sovrindori Fazliddin Shafoatov kabi sozandalarni sanab o'tish mumkin. Ijrochilikni rivojlantirishda repertuar ham muhim o'rin tutishi hammaga ma'lum. Bugungi rivojlangan, shiddatli hayot tarziga ega bo'lgan globallashuv jarayonlarida dunyoning ko'plab xalqlari o'zlarining milliy urf-odatlarini, musiqiy cholg'ulari va madaniyatini o'z holicha saqlab qol maganligini kuzatish mumkin. Shunday ekan, biz mutahassislar, ya'ni sozgar ustalardan tortib, ijrochi sozanda, ijodkor kompozitor va musiqashunos olimlari oldida milliy cholg'ularimizning umrboqiyiligini ta'minlash, ularni kelajak avlodga yanada rivojlangan va takomillashtirilgan holda yetkazib berishdek dolzarb masala hamisha saqlanib qolaveradi. Hozirgi zamon ijrochiligida afg'on rubobi nafaqat ansambl va orkestr ijrochiligida, balki yakkanavoz soz sifatida, shuningdek, milliy Estrada ijrochiligi san'atida ham keng qo'llanilib kelinmoqda. O'ylaymanki, ushbu o'quv qo'llanma yangicha uslubda ishlashga asos yaratadi va yosh ijrochilarga o'z mahoratini oshirishga yordam beradi, degan umiddaman. Al-Farobiy (X asr) o'z davridagi musiqa cholg'ularini tavsiflar ekan, rubobda bir-biridan farq qiladigan ijroga erishish mumkinligini, uning afzalliklaridan biri deb hisoblaydi: «Rubobda boshqa yaxshi sifatlar ham bor. Bular faqat uning o'zigagina xos. Unda baland va mayin chalish mumkin». Darvesh Ali (XVII asr) «Musiqa haqida risola» asarida musiqa cholg'ularining tuzilishini bayon qilar ekan: «Rubob-torli musiqa asbobi. O'rta Osiyoda Sulton Muhammad Xorazmshox (1200-1220) davrida tarqaldi... shu davrda Xorazmshox saroyida tengi yo'q rubob cholg'uvchi usta Mahmud yashar edi... Rubobda beshta tor bo'lib, ulardan to'rttasi ipakdan va bittasi kumushdan edi», -deb yozadi. Rubobning qadimdan buyon qo'llanib kelayotganligi haqidagi ma'lumotlarni biz N.N. Mironov asarlarida ham ko'ramiz. U shunday deb yozadi: «Rubob-juda qadimiy afg'on asbobi. U Hindistonda ham uchrab turadi. Qashqarda u rubob deb ataladi. professor Fitrat o'zining «O'zbek klassik musiqasi tarixi» asarida bu cholg'uni Xorazm amiri – Muhammad Xorazmshox davrida (XV asr) Balh shaxrida noma'lum shaxs tomonidan yasalganligi haqidagi rivoyatni keltiradi. Afg'on rubobi qadim zamonlardan beri o'zbek xalqi orasida, ayniqsa, Buxoro va Samarqandda keng tarqalgan. Uning korpusi ponasimon shaklda katta va chuqur bo'lib, yon tomonlarida o'yiqlari bor, dastasi kalta (8-10 sm) bo'lib, uchi biroz orqaga qayrilgan. Korpus bilan dastasi yaxlit yog'ochdan (ko'pincha tut daraxtidan) o'yib yasaladi. Dastasi pardalarga bo'linadi, uning pastki qismi kengaya borib qopqoqqa ulanib ketadi va korpusning ustini o'yiqlarga qadar yopadi. Korpusning qolgan qismi (o'yiqlardan keying qismi) ga teri qoplanadi. Cholg'uning umumiy uzunligi 70-80 sm. Uning dastasiga, odatda 4-5 ta asosiy parda, taxta qoplamasiga esa 6-7 qo'shimcha hasparda o'rnatiladi. Afg'on rubobi kvartaga sozlanib, ohangdor tovush hosil qiluvchi 5 asosiy tor va yon quloqlarga tortilib sekundaga sozlanadigan aks sado beruvchi 10-11 ta yordamchi tor bo'lib, asosiy torlar ichakdan, yordamchilari esa metal (po'lat) dan tayyorlangan. Ulardabir oktavadan ortiqroq diapazondagi diatonik tovushqator hosil qiladi.



Volume 3, Issue 2, Feb, 2022



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor F. Karomatov o'z kitobida cholg'u sozlarni tariflar ekan, afg'on rubobini Buxoro rubobi deb ham atagan. Eski Buxoro yoki Afg'on rubob to'rt qismdan iborat: tutdan yasalgan bosh qismi, qorinning past qismi, qorinning ustki qismi. U tut daraxtining yaxlit bo'lagidan ishlangan. Qorinning ustiga kiyik terisi tortilgan. Afg'on rubobining 17-20 gacha tori bo'lgan. Shundan 6 tasi asosiy bo'lib, 5 tasi ichakdan va 1 tasi kumushdan yasalgan. Qolgan 11 tadan 14 ta gacha torlari po'lat simli, ya'ni sado berib turuvchi torlar hisoblangan. 6 ta asosiy tor qorinning ustki qismidagi xarrakdan sozning bosh qismidagi quloqlarga, qolgan 11 dan 14 ta tor esa shu xarrak ostidagi teshiklardan sozning dastasidagi chap tomonda joylashgan quloqlarga ulanadi. Soz, yog'ochdan hayvon suyagi yoki shohidan ishlangan mezrob (noxun) bilan chalingan. Afg'on rubobining yaratilishi haqida bizgacha turli rivoyatlar yetib kelgan. Bir rivoyatda hikoya qilinishicha: Bir kuni Buxoro xonining qizi kasal bo'lib qolibdi. Shunda Xon Hindistondan va yetti iqlimdan donishmand tabib va olimlarni o'z saroyiga chorlaydi, bittayu-bitta qizini qanday qilib davolash mumkinligi haqida maslahat solibdi. Ammo barcha urinishlari behuda ketibdi. Shunda Balh shahrida tug'ilib, o'zi Buxoroda muqim sozanda xonning oldiga borib, uning qizini davolash uchun urininb ko'rishga ruxsat oladi. Shunda Xon; "Qizimni kim davolasa yarim boyligim va qizimni beraman, deb" – va'da beribdi. Ammo qizni to'g'ridan-to'g'ri ko'rish, u bilan suhbatlashish imkoni bo'lmabdi, chunki o'sha davrdlarda ayollarni parda orqali ko'rish mumkin edi. Qizning yonida albatta o'zi yaxshi ko'rgan, ishongan sirdoshi kanizagi bo'lardi. Shundan yigit nimaga qiziqadi, nima uchun u hech kimni yoqtirmasligi va ko'p hayol surishini so'rabdi. Shunda kanizak yigitga xonzoda nihoyatda to'vusga ixlosi balandligini, ayniqsa, u qanotlarini yoyib o'z chiroyni ko'z-ko'z qilganda: –"Qani endi shu to'vus kuylasa, mening dardimga davo bo'lardi", - degan gapini kanizak yigitga yetkazibdi. Shundan keyin Balhlik yigit Buxorodagi o'z ustaxonasida ilk bor to'vusga o'xshatib rubob yasaydi va xonzoda huzuriga borib parda orqasida rubob chalib, uni maftun etadi. Xonzoda rubobdan chiqayotgan yoqimli sadolardan bahramand bo'lib o'z holiga kelib, asablari tuzalib, avvalgidan ham go'zallashib ketibdi. Buni ko'rgan xon va'dasida turib, sozandaga qizini va yarim boyligini beribdi. (Shunda bu rubob kimniki deb so'raganida, bu ana shu afg'onniki, - deb odamlar aytishibdi). Vaqt o'tishi bilan yigit va xonzoda uzoq yillar baxtli hayot kechirishib, farzandli bo'lishibdi va ularning farzandlari ham shu otasi ixtiro qilgan rubobni Buxoroda bir necha yillar davomida rivojlantirib, kuylar ijro etib kelishibdi.

Adabiyot

1. D. Erlanger << Za. musigue arabe Bd I Paris >> 1930, 285 bet
2. А. Семёнов. Трактат по музыке Дервиша Али (XII век), Ташкент, 1946, 18-19 стр.
3. Н.Н.Миронов. Музыка узбеков. Самарканд, 1929...
4. S.M. Taxalov "Afg'onrubobinichalishgao'rgatishmetodikasiasoslari" ToshkentO'qituvchi 1983-yil 4-5 betlar.